

ТИЛ ТАРИХИ • МАНБАШУНОСЛИК • МУМТОЗ МАНБАЛАР ТИЛИ • ЛЕКСИКОЛОГИЯ ВА ЛЕКСИКОГРАФИЯ
ТЕРМИНОЛОГИЯ • ОНОМАСТИКА • УСЛУБШУНОСЛИК • ДИАЛЕКТОЛОГИЯ • МОРФОЛОГИЯ ВА СИНТАКСИС
СОЦИОЛИНГВИСТИКА • ПСИХОЛИНГВИСТИКА • ПРАГМАЛИНГВИСТИКА • ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ
КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ • ТИЛ УРГАНИШ – ДАВР МУАММОСИ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ УЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ
УЗБЕК ФИЛОЛОГИЯСИ ФАКУЛЬТЕТИ

ЛИНГВИСТ

ИЛМИЙ МАҚОЛАЛАР ТУПЛАМИ



Ахатова М. «Ўзбек тилининг фаол сўзлар луғати»да тасаввуфий истилоҳларнинг ифодаланиши.....	85
G'aniyeva I. O'xshatish va qiyoslashning o'zbek tilida ifodalanishi	87
Қаршиева Б. Автомобилсозликка оид матнлардаги терминларни инглиз тилидан ўзбек тилига таржима қилиш ҳақида баъзи мулоҳазалар	90

МОРФОЛОГИЯ ВА СИНТАКСИС

Нишонова Ш. Тилшуносликда фузия ҳодисаси хусусида	94
Турдалиева Г. Макон маъносидаги бирикмалар синонимияси	96
Джапарова У. Келишик категориясининг турк тилшунослигида ўрганилиши	99
Хамракулов А. Функциональный статус вставных конструкций в романе В.Набокова «Отчаяние» (На фоне конкретного микроконтекста).....	103

СОЦИОЛИНГВИСТИКА. ПСИХОЛИНГВИСТИКА. ПРАГМАЛИНГВИСТИКА. ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ. КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ

Усманова Ш. Социоллингвистикада психоллингвистик ва социологик тушунчаларнинг талқини	106
Менглиев Б., Ибрагимов Ж. Тил илми ва ижтимоий буюртма	109
Бекмуҳамедова Н. Ўзбек танишув эълонларининг ўзига хос хусусиятлари.....	112
Азимова И. Аграмматик афазиядаги спонтан нутққа хос айрим жиҳатлар.....	114
Искандарова Г. Нутқий онтогенезда сўз маъносининг тараққиёти.....	119
Максумова С. Шеърятда интертекстуаллик прагматик-коннотатив маъно ифодалаш воситаси сифатида.....	122
Валиева Г.Х. Ўзбек халқ мақолларида миллий менталитет ифодаси	125
Ибрагимов Ж. Лингвистик прагматика нимани ўрганади?	129
Насруллаева Г. Антропоцентрик метафора таснифига доир.....	133
Исаева М. Қариндошлик асосидаги шахс номларининг гендер хусусиятлари	136
Тошева Д. «Тулки» компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари.....	143
Абдурахмонова Н. Машина таржимасида лингвистик таҳлил масаласи....	148
Rasulov N. Mashina tarjimasida omonimlarni muqobil so'zlarga almashtirish masalasi	152
Saydaliyeva M. Internet lingvistikasi tartibli kommunikativ paradigma sifatida	155
Очилова З. Билингв бола нутқини машқлар ёрдамида ривожлантириш	157
Аширбаева С. Замонавий тилшуносликда «лакуна» тушунчаси.....	160
To'xtayeva S. Og'zaki nutqning buzilishi hodisasi.....	163
Yo'lchiyeva D. Talabalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari	167
Abdukarimova N. Badiiy matnning gender tadqiqi xususida	170
Комилова Г. Паремаларда оила билан боғлиқ қарашлар ифодаси	173
O'rozova I. Metaforaning paremlar semantikasida tutgan o'rnini	178

METAFORANING PAREMALAR SEMANTIKASIDA TUTGAN O'RNI

Metafora hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslangan ko'rinishidir.¹ Tilda metafora usuli bilan ma'no ko'chishi keng tarqalgan. Til hodisasi bo'lgan metaforalar oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi erklarga bo'linadi.² Matnda voqealanish jihatidan esa metaforani so'z-metaforalar, birikma-metaforalar, gap-metaforalar, matn-metaforalarga ajratish mumkin.³ Lingvistik tasvir vositasining bu turi paremalarda ham ancha faol bo'lib, ularning emotsional ta'sirchanligini, xalqchilligini ta'minlaydi. Bilamizki, palemalarga maqol, matal va frazeologizmlar kiradi. Maqol va matallarda metaforaning bu uch turi ham faol ishlatiladi va ifodani kuchaytirib nutqimizni bezaydi. Quyida shulardan ayrimlarini tahlilga tortamiz.

Kumush xotin kunda kasal,

Oltin xotin oyda kasal.

Mataldagi «kumush» va «oltin» so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanmoqda.

«Kumush» so'zining hosil qiluvchi referenti «Mendelejev davriy sistemasining I guruhiga mansub element, oq-ko'kish rangli yaltiroq, asl metall»⁴ semalariga ega. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zning hosila ma'nosi «kumushga nisbatan bildiradi»⁵ deb izohlangan va misol tariqasida «kumush tola» birikmasi keltirilgan.

«Oltin» so'zining genetik ma'nosi «Mendelejev davriy sistemasining I guruhiga mansub element; sariq-qizg'ish tusli qimmatbaho nodir metall; zar: tilla»⁶ semalarini ifodalaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida «oltin» so'zining hosila ma'nosi «qimmatli, bebaho»⁷ shaklida izohlangan.

¹ Baldinger K. Die Semasiologie. – Berlin: Akademie Verlag, 1957. – S.87; Qamg. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B.94.

² Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B.94.

³ Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B.101 – 110.

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2006. 2-jild. – B.581.

⁵ O'sha joyda.

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2006. 3-jild. – B.118.

⁷ O'sha joyda.

Matalda qo'llangan «*kumush xotin*» va «*oltin xotin*» birikmalarida belgi-ga ko'ra o'xshashlik asosida oddiy metafora hosil bo'lgan. Kumush va oltinning metall sifatidagi xususiyatini insonga ko'chirib qiyoslash orqali bo'yoqdorlik kuchaytirilmoqda. Bilamizki, kumush buyumlar alohida par-varishni, e'tiborni talab qiladi. Ularga bo'lgan e'tiborsizlik, ehtiyotsizlik metall xususiyatining o'zgarishiga – xiralashishiga, qorayishiga – olib keladi. Oltin buyumlar esa, aksincha, tashqi ta'sirlarga ancha chidamli bo'lib, ko'p hollarda o'z xususiyatlarini o'zgartirmaydi. Maqolda hosila ma'no ana shu «*chidamlilik darajasi*» me'yori asosida paydo bo'lmoqda. Ya'ni doim o'zgalar diqqat markazida bo'lishni xohlovchi, alohida e'ti-bor va e'zozni talab qiluvchi ayollar (kumushga o'xshash) xiyla bee'ti-borlikdan kayfiyati o'zgarishi, hayotdagi turli past-balandliklarni hazm qilolmasligi, tushkunlikka tushishi mumkin. Ammo muhitga moslashuv-chi, hayotning issig'idan kirib, sovug'idan chiquvchi ayollar (oltin-ga o'xshash) qiyinchiliklarga bardoshli bo'lib, ahyon-ahyonda qoqilishadi, kamdan kam hollarda tushkunlikka tushishadi.

G'ayratsizning yuragi o'ynar.

Mataldagi «*yuragi o'ynar*» birligi birikma – metafora bo'lib, oddiy metafora usuli bilan ma'no ko'chishi kuzatiladi. «*o'ynar*» referentining genetik ma'nosi «*tana, oyoq, qo'l va qosh-ko'zlarni kuyga muqobil holda harakatlantirmoq, raqs tushmoq*»¹ semalarini ifoda etadi. Izohli lug'atda «*yuragi o'ynar*» birikmasi «*vahima bosmoq, hovliqmoq, qo'rqmoq*»² se-malari bilan izohlangan. Tahlildagi matalda hosil qiluvchi va hosila ma'no tarkibidagi «*harakatlanish*» semasi metaforaga, ya'ni o'xshashlikka asos bo'lmoqda. Bunda jismoniy harakat natijasida tez urayotgan yurak raqs tushayotgan odamga o'xshatilmoqda. Bilamizki, g'ayratsiz, danga-sa odam kam harakat qiladi. Natijada organizm kam jismoniy harakatga moslashadi. Boshqalar uchun oson va yengil bo'lgan jismoniy harakat-lar, yumush va mehnatlar g'ayratsiz kishilarni charchatadi, hansiratadi, yuragining hovliqishiga sabab bo'ladi.

Qalb qozoni qaynamas,

Qaynasa ham quyulmas.

Avvalo, mataldagi «*qalb*» so'ziga izoh berishni lozim topdik. «*Qalb*» so'zining genetik ma'nosi «*aldam-qaldam, qing'ir ishlar qiladigan; qallob, nopok*»³ semalarini ifodalaydi. Mataldagi «*qozon*» so'zi ko'chma ma'no-da qo'llangan bo'lib, «*qalb qozoni*» ko'rinishidagi birikma-metaforani ho-

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2008 5-jild. – B.43.

² O'sha manba. – B.144

³ O'sha manba. – B.226.

sil qilmoqda, oddiy metafora. Birikma-metaforaning hosila ma'nosi izohli lug'atda berilmagan bo'lib, «*ko'p miqdordagi narsa, voqea, hodisalar* (bu o'rinda *qalloblikning*) *jamlanmasi*» semalarini aglatadi. Matal matnida semantik inersiya hodisasi kuzatiladi (Metaforik mazmunda qo'llangan birliklarning keyingi jumalarga mazmuniy ta'siri semantik inersiya deyiladi) «*qalb qozoni*» referentining *qaynamas, qaynasa, quyulmas* so'zini taqozo qilishi semantik inersiya natijasidir. Semantik inersiya metaforik mazmunning matn bo'ylab yoyilishini, obrazli ifodaning bir maromda saqlanib turishini ta'minlaydi.² Matal ma'nosi: qalloblik, firibgarlik bilan kun ko'ruvchi kishilar hayotda o'z o'rnini topolmaydi, bir muddat ular omadga erishganday tuyulsa-da, bu uzoqqa bormaydi. Barcha qilgan harakatlari, intilishlari yo'qqa chiqadi.

Ishning ko'zini bil,
Erning – tilini.

Matalda «*ko'z*» va «*til*» so'zlarida metafora orqali ma'no ko'chishi ro'y bermoqda.

«*Ko'z*» so'zining genetik ma'nosi «*tirik mavjudotning ko'rish a'zosi*»; «*nazar, nigoh, qarash*»; «*ko'rish qobiliyati*»³ sememalarini ifodalaydi. Ko'z insonning eng muhim va nozik a'zosi ekanligi hammaga ma'lum. Ziyrak kishilar odam ko'ziga qarab uning ko'pgina siridan voqif bo'lishi mumkin. Mataldagi hosila ma'no ham xuddi shu insonga xos belgining ishga ko'chirilishi natijasida, ya'ni personifikatsiya usuli orqali paydo bo'lmoqda. Matalda qo'llangan «*ishning ko'zi*» birligi birikma-metafora bo'lib, «*ishning bajarlish, bitish yo'l-yo'rig'ini yaxshi bilmoq*»⁴ semalarini ifodalamoqda.

«*Til*» so'zining hosil qiluvchi referenti «*Og'iz bo'shlig'ida joylashgan, ta'm-maza bilish, og'izga ovqat olish, yalash va sh.k.lar uchun xizmat qiladigan muskulli a'zo*»⁵; «*kishilar o'rtasida, jamiyatda o'zaro fikr almashishning muhim vositasi*»⁶ sememalaridan iborat bo'lib, izohli lug'atda bu so'zning hosila ma'nosi «*biror narsa, ish-faoliyatning mohiyati, siri va sh.k.*»⁷ semalari bilan izohlangan. Bilamizki, inson ko'nglidagi niyatlari, orzulari, o'y-fikrlari til orqali voqelanadi. Matalda «*erning tilini top*» gap-metaforasi orqali «*erning ko'ngliga yo'l topish, uni tushunish*»

¹ Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B.105.

² O'sha manba. – B.106.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2006. 2-jild. – B.443.

⁴ O'sha manba. – B.445.

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2006. 4-jild. – B.91.

⁶ O'sha joyda.

⁷ O'sha manba. – B.91.

hosila ma'nosi yuzaga kelmoqda. Matal mazmuni quyidagicha: Biror sohada, ishda yutuqqa erishishni xohlasang, shu ishning bajarilish yo'sinini, bitish yo'l-yo'rig'ini yaxshi egalla. Oilang tinch bo'lishini, yurt orasida obro'-e'tiboring saqlanishini istasang, eringning ko'nglini top.

Mehnatning ko'zini topgan

Boylukning o'zini topar.

Ushbu matalda ham personifikatsiya ko'rinishidagi hosila ma'no yuzaga kelmoqda.

Achchiq savol berib,

Shirin javob kutma.

Mataldagi «*achchiq*» va «*shirin*» so'zlari metafora usuli orqali hosila ma'noni yuzaga keltirarmoqda.

«*Achchiq*» referentining genetik ma'nosi «*ta'mi og'izni achitadigan, lovillatadigan*»¹ belgisini ifodalaydi. Tahlildagi matalda esa «*kishiga qattiq tegadigan, ko'ngilga ozor beradigan; qattiq, noxush*»² hosila ma'noni anglatmoqda.

«*Shirin*» so'zining hosil qiluvchi referenti «*yemish ta'mining yoqimli, mazali, lazzatli*»³ ekanini anglatadi. Hosila ma'nosida esa «*kishi huzur qiladigan, orom oladigan, lazzatlanadigan; yoqimli*»⁴ semalari yuzaga chiqmoqda.

«*Achchiq*» va «*shirin*» so'zlarining hosila ma'nosi sinesteziya orqali yasalmoqda. Sinesteziyada hosila ma'noning ma'lum sezgi bilan qabul qilingan referenti hosil qiluvchi ma'noning boshqa sezgi bilan qabul qilingan referentiga qiyoslangan, o'xshatilgan bo'ladi.⁵ Bu so'zlarning hosil qiluvchi referenti ham, hosila referenti ham antonim bo'lib, mavhum sezgi orqali olinuvchi ta'sirni real sezgi orqali olinadigan holatga o'xshatish orqali fikr aniq va ta'sirchan ifodalanmoqda.

Achchiq til – zahri ilon,

Chuchuk tilga jon qurbon.

Bu matalda ham xuddi shu holat kuzatilmogda.

Quruq qo'lga qush qo'nmas.

Maqolda «*quruq*» referenti sinesteziya usuli orqali ko'chma ma'noda qo'llanmoqda. «*Quruq*» so'zining genetik ma'nosi «*Suvi, nami batamom yoki qisman qochgan; suvini, namini batamom yoki qisman yo'qotgan;*

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2006 1-jild. – B.122.

² O'sha joyda.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2006 4-jild. – B.579.

⁴ O'sha joyda.

⁵ Miro'tijiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010 – B.99.

suvi, nami yo'q yoki oz»¹ belgisini ifodalaydi. «*Quruq qo'l*» birikma-metafora bo'lib, «ichida hech narsasi yo'q, bo'sh»² ma'nosida qo'llangan. Hosil qiluvchi va hosila ma'no uchun umumiy sema «yo'qlik»dir (hosil qiluvchi ma'noda suv yoki namlik yo'qligi, hosila ma'noda yemishning yo'qligi). Metafora maqoldagi fikr va ifodani bo'rttirib, obrazli tasvirlayapti. Agar shu maqoldagi «*quruq*» so'zini u bilan bir pozitsiyada turuvchi «*bo'sh*» so'ziga almashtirsak, tasvir avvalgidan ko'ra qashshoqlashganini ko'rish mumkin.

Ko'ylak kirin yuvsa ketar,

Ko'ngil kirin aytsa ketar.

Matalda «*kir*» referenti o'z va ko'chma ma'noda ham qo'llangan. Ma'no ko'chishi sinesteziya usuli bilan hosil bo'lmoqda. «*kir*» so'zining hosil qiluvchi referenti «*badan, kiyim va shu kabilarga chang-to'zon o'tirishi tufayli va boshqa yo'llar bilan hosil bo'ladigan ifloslik*»³ semalarini ifodalaydi. Hosila ma'nosi esa «*g'am-qayg'u, dard, tashvish tufayli inson ruhida paydo bo'luvchi g'ashlik*» semalarini aks ettiradi. O'z ma'no va hosila ma'no qiyoslanishi orqali hosila ma'nodagi abstraktlik reallashtirilgan, tasavvur aniqlashtirilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, paremlar xalq o'tmishini, ma'naviyatini, zukkoligi va donoligini o'zida aks ettiruvchi xazinadir. Ularda qo'llangan lingvistik tasvir vositalarini o'rganish, tahlil qilish bugungi kun tilshunosligida dolzarbligicha qolmoqda.